



JISMONIY-AQLIY RIVOJLANISH ASOSIDA BILISH FAOLLIGINING SHAKLLANISHI VA O‘ZIGA XOS JIHATLARI

Xudoyberdiyev B.R.

*Qarshi davlat universiteti,
p.f.f.d (PhD), Sport faoliyati kafedrası*

Tayanch so‘zlar: jismoniy-aqliy, kognitiv mustaqillik, bilish faolligi.

Ключевые слова: физическое-умственное, познавательная самостоятельность, познавательная деятельность.

Key words: physical-mental, cognitive independence, cognitive activity.

Jismoniy-aqliy rivojlanish uyg‘unligida o‘quv-bilish faolligi nazariy asoslarining tahlili shuni ko‘rsatadiki, o‘quvchilarda jismoniy tarbiya o‘quv fani vositasida ularda bilish faolligini shakllantirish muammolari hali yetarlicha o‘rganilmagan.

Mazkur masalalar bo‘yicha bugungi kunda yuzaga kelgan vaziyat ushbu faoliyatning o‘ziga xos jihatlarini ochib beruvchi va tizimni hosil qiluvchi hamda muayyan darajada uning yo‘nalishi va samaradorligini belgilovchi faktor sifatidagi asosiy tushunchalarning mohiyati haqida ishonchli va ilmiy dalilga asoslangan tasavvurlarning yo‘qligidan guvohlik bermoqda.

Bilish faolligini tadqiq etuvchi izlanishlarni yetarlicha deb aytish mumkin. Biroq ushbu tadqiqotlarda mazkur tushunchaning xususiyatlari bir taraflama o‘rganiladi. Xususan, bilish faolligi insonning psixik holati sifatida o‘rganilgan bo‘lib, jismoniy tarbiya o‘quv fani bo‘yicha mashg‘ulotlar tashkil qilish jarayonidagi asosiy tarkibiy qismlari (o‘z-o‘ziga nisbatan tanqidiy qarash, o‘z qadrini anglash, e‘tiborni jamlash, tashabbuskorlik va shu kabilar) ajratilgan holda ko‘rsatilgan, xolos.

Bir qator mualliflarning ishlarida hatto “bilish faolligi” tushunchasining mohiyatiga va jismoniy-aqliy rivojlanish uyg‘unligidagi o‘quv-bilish faolligini shakllantirish sohasidagi umumiy ta‘lim jarayonlarini tashkil etishdagi o‘ziga xos jihatlariga chuqurroq kirishga harakat ham qilinmagan [2; 98-b].



Shuning uchun ham “jismoniy madaniyat sohasidagi bilish faolligi” va “jismoniy-aqliy rivojlanish uygʻunligidagi oʻquv-bilish faolligini shakllantirish sohasidagi umumiy taʼlim jarayonidagi bilish faolligi” tushunchalarining tub mohiyatiga eʼtibor qaratish lozim deb hisoblaymiz. Aytish lozimki, sohaga doir adabiyotlarda bu ikki tushunchaga aniq va yorqin taʼrif ham berilmagan. Holbuki, mazkur tushunchalarning mohiyati, oʻrni va ahamiyatini aniqlashtirib olish oʻquvchining jismoniy-aqliy rivojlanish uygʻunligidagi oʻquv-bilish faolligini shakllantirish sohasida umumiy taʼlim jarayonidagi “bilish faolligi” shakllanganligining darajasini belgilab olishning asosiy sharti hisoblanadi.

Fan sohasida joriy etilgan qoidalarga muvofiq, muayyan bir soʻz u yoki bu hayotiy hodisa, narsa va ashyoning mohiyatini toʻla ochib berishi, shuningdek, unga boʻladigan munosabatlarni zarur darajada oydinlashtirib berishi lozim. Xuddi shunday aniq, ishonchli taʼriflar, ayniqsa, pedagogikada kerak. U yoki bu hodisaning, narsa va ashyoning tub mohiyatini yorqin tasavvur etish, aniq bilish taʼlim jarayonini samarali va sifatli tashkil qilish uchun shart-sharoit yaratib beradi.

Mazkur holatni alohida qayd etib oʻtish lozim. Negaki, aynan pedagogika sohasida keyingi yillardagi tadqiqotlarda ilmiy tushunchalarga ahamiyat bermaslik faktlari tez-tez koʻzga tashlanmoqdaki, bu hol tadqiqotlarning samaradorligiga putur yetkazadi. Shu oʻrinda quyidagi fikrni oʻz oʻrnida aytilgan deb hisoblaymiz: “Taʼlim va tarbiya muammolariga aloqador barcha tushunchalarning aniq, yorqin va loʻndaligi eng birinchi masala. Chalkash soʻzlar, atamalar va tushunchalar tufayli fikrlarimizni chalgʻitmasdan, chuvalashib ketgan bu kalavaning uchini topishimiz kerak. Har bir tushunchadan, uning vazifasi va ahamiyatini his etgan holda oʻz oʻrnida foydalanish lozim” [3; 46-b].

Tadqiq etiladigan tushunchalarning tub mohiyatini aniqlashtirish va taʼrifini ishlab chiqish masalasining dolzarbligi quyidagi ikki holatda koʻrinadi. Birinchidan, jismoniy-aqliy rivojlanish uygʻunligidagi oʻquv-bilish faolligini shakllantirish sohasidagi umumiy taʼlimda bilish faolligining shakllanishi tushunchasiga ilmiy jihatdan asoslangan yondashuv mavjud emas. Ikkinchidan, mazkur jarayonning mohiyatini ochib beradigan barqaror tasavvurlarning yoʻqligi. Ushbu qayd etilgan ikki holat mazkur mavzu boʻyicha koʻzda tutilgan tadqiqotlarning muayyan maqsadga qaratilganlik xususiyatini kamaytiradi va aynan shuning uchun tadqiqotlarimizdagi hal qiluvchi mavzulardan biri hisoblanadi.

Pedagogikada bilish faolligi taʼlim tizimidagi “tizimosti” jarayon sifatida namoyon boʻladi. “Jismoniy tarbiya sohasidagi bilish faolligi” va “Jismoniy-aqliy rivojlanish uygʻunligidagi oʻquv-bilish faolligini shakllantirish”

tushunchalarining tub mohiyatini oydinlashtirishning zarurati, birinchi galda, mazkur tushunchalar haqidagi ta'limning muhim maqsadlari va asosiy natijalari nuqtai nazaridan hosil bo'lgan tasavvurlarning ifodasidan kelib chiqadi.

Xuddi shu xildagi majmuaviy ta'sir qilish orqali o'quvchilarning bilish va harakat faolligi shakllanish jarayonining samaradorligiga erishish mumkin. Bu esa o'z navbatida o'quvchilarning aqliy va jismoniy rivojlanishi, qiziqish sohalari aniqlashtirib olishi, aqliy va harakat faolligining ta'limiy zarurat sifatida shakllanishi kabi hodisalarning samarali tarzda kechishiga bevosita ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Mazkur ijobiy ta'sir natijasida ta'lim oluvchilar ichki ishtiyoq, qiziqish va zarurlardan kelib chiqib, mustaqil bilim o'rganish, o'z-o'zini rivojlantirish va jismoniy takomillashuvga tayyorlana boradilar [1; 73-b].

Jismoniy-aqliy rivojlanish uyg'unligidagi o'quv-bilish faolligini shakllantirish sohasidagi umumiy ta'lim jarayonlarida bilish faolligi namoyon bo'lishining muhim alomatlaridan biri o'quvchilarning o'z bilish faoliyatlarini jismoniy tarbiya vositalari orqali o'z-o'zini va bilish sub'ektini hamda ta'sir ob'ektini anglash kabi maqsadlarga yo'naltirishni ongli ravishda boshqarish xususiyatlari bo'lishi lozim. Ya'ni ushbu o'rinda mazkur alomat qadimgi donishmandlarning "dunyoni idrok etish uchun inson avvalo o'zini anglamog'i kerak" deyiluvchi hikmatiga muvofiq tarzda namoyon bo'ladi. Insonning o'z-o'zini anglashga intilishi bo'lmasa, uning to'laqonli mavjudligi va shaxs sifatida rivojlanishi haqida gap ham bo'lishi mumkin emas.

"Bilish faolligi" tushunchasining mohiyatini umumdidaktik nuqtai nazardan tahlil etish natijasida shunday xulosaga kelish mumkin: jismoniy-aqliy rivojlanish uyg'unligidagi o'quv-bilish faolligi shakllanishining eng muhim natijasi uning jismoniy tarbiya bo'yicha mustaqil ta'lim olish, o'z-o'zini rivojlantirish, o'z-o'zini tarbiyalash jarayonlariga aylanishidan iborat bo'lishi lozim. Ta'lim jarayonlarida, shu jumladan, jismoniy tarbiya sohasidagi ta'lim jarayonlarida ham bilish faolligi shakllanganligining eng oliy shakli kognitiv mustaqillik, ya'ni bilish mustaqilligidir deb hisoblash o'rinlidir.

Kognitiv mustaqillik (ya'ni bilish mustaqilligi) o'quvchilarning o'quv masalalarini samarali va natijador hal etish uchun yangi bilimlarni o'zlashtirish, tashabbuskorlik kabi fazilatlariga zarurat sezishlarida namoyon bo'ladi. Qaysiki, bilish mustaqilligining namoyon bo'lish darajasi o'quvchi mustaqilligining rivojlanish darajasiga bog'liqdir.

Kognitiv mustaqillik, ya'ni bilish mustaqilligi o'quvchining o'z-o'zini va atrof borliqni anglashga yo'naltirilgan bilish faoliyatini nazarda tutadi. Shu nuqtai nazardan kelib chiqib aytish mumkinki, "jismoniy tarbiya sohasidagi bilish faolligi" – shaxsning uni mustaqil ravishda yangi bilimlar olish,



jismoniy tarbiya va sport faoliyatining aqliy hamda jismoniy faollik talab qiladigan usullarini o‘rganishga astoydil qiziqtiradigan, rag‘batlantiradigan va ilhomlantiradigan alohida fazilatidir.

Bilish mustaqilligi – jismoniy tarbiyaning shaxs va jamiyatning yuqori darajadagi jismoniy madaniyatini ta’minlashdan iborat bosh maqsadiga erishish shart-sharoitlarini yaratish uchun jismoniy-aqliy rivojlanish uyg‘unligidagi o‘quv-bilish faolligini shakllantirish sohasi bo‘yicha zarur bo‘ladigan darajadagi ta’lim sifati va samaradorligini belgilovchi omildir [2; 40-b.].

Jismoniy-aqliy rivojlanish uyg‘unligidagi o‘quv-bilish faolligini shakllantirish sohasida umumiy ta’lim jarayonlaridagi bilish mustaqilligi – ta’lim oluvchi shaxsining harakatli va aqliy manfaatlarini, qiziqishlarini o‘zida mujassam etgan xususiyatdir. Mazkur xususiyatni hosil qiluvchi tarkibiy qismlarning – qiziqish, intilish, tashabbuskorlik, mustaqillik va shu kabilar jismoniy tarbiya bo‘yicha ta’lim olish va o‘z-o‘zini rivojlantirish, jismoniy takomillashuv jarayonining samaradorligini oshirish uchun jismoniy tarbiya vositalaridan foydalanish usullarini izlash jarayonlarining o‘zaro aloqadorligiga erishish “jismoniy-aqliy rivojlanish uyg‘unligidagi o‘quv-bilish faolligini shakllantirish”ning darajasini belgilaydi. Ya’ni maktab o‘quvchisi shaxsining xususiyatlaridan biri bo‘lib, jismoniy tarbiya ta’limi va o‘z-o‘zini rivojlantirish jarayonlaridagi bilish mustaqilligining namoyon bo‘lishi bilan tavsiflanadi.

Umumiy ta’lim bo‘yicha DTSda o‘quvchilarning ta’limning boshlang‘ich bosqichlaridan boshlab jismoniy tarbiya o‘quv fani bo‘yicha mustahkam bilim olib, ko‘nikma va mahorat egallashlari bilan bir qatorda, jismoniy mashqlar bilan shug‘ullanish davomida o‘z organizmlarini ongli ravishda nazorat qilib borish, shaxsiy gigiena qoidalariga rioya qilish, sog‘lom turmush tarzi yo‘riqnomalariga itoat qilish kabi fazilatlarga ham ega bo‘la borishlari ko‘zda tutilgan. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarida o‘quvchilar oldiga o‘z-o‘zini jismoniy rivojlantirish bo‘yicha bilimlar tizimini o‘zlashtirish, tizimli jismoniy mashqlar bilan shug‘ullanish faoliyatini mustaqil ravishda tashkil etish tajribasiga ega bo‘lish, o‘z organizmining jismoniy rivojlanish va jismoniy chiniqqanlik holatini monitoring qilib borish layoqatini egallash kabi asosiy maqsadlar qo‘yiladi.

Mazkur masalalarni hal etish uchun muayyan maqsadga qaratilgan, yetarlicha miqdordagi ish hajmiga ega bo‘lgan samarali faoliyat tashkil etish talab etiladi. Jismoniy-aqliy rivojlanish uyg‘unligidagi o‘quv-bilish faolligini shakllantirish sohasida umumiy ta’lim jarayonlarida o‘quvchilar mustaqil holda bilish va harakat faoliyatlarini amalga oshirishlari uchun ularni bu darajaga yetkazishning maxsus va samarali choralarini ko‘rish kerak. Bu



jarayon esa o'quvchilarning harakatli jismoniy mashqlarni intensiv ravishda bajarish (tushunchalarni mufassal tushuntirish, u yoki bu jismoniy mashqning bajarilishini o'rgatish, jismoniy mashqlarning natijadorligini aniqlash usullarini o'rgatish, jismoniy mashq oldidan va undan keyin organizm holatini kuzatish va shu kabilar) orqali jismoniy tayyorgarlikka erishishlariga ketadigan vaqtdan ancha ko'p vaqt talab qiladi.

“Jismoniy tarbiya” o'quv fanining asosiy umumiy o'rta ta'lim fani sifatidagi mundariyasi, garchi o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lsa ham, aniq maqsadga yo'naltirilganligi va ahamiyati bo'yicha boshqa asosiy umumiy o'rta ta'lim fanlaridan farq qilmasligi kerak. Ya'ni boshqa asosiy umumiy o'rta ta'lim fanlari qatorida o'quvchining ta'lim olganlik, shaxs sifatida shakllanganlik darajasini belgilovchi omillardan biri sifatida qaralmog'i lozim. [4].

Adabiyotlar:

1. Лебедев О.Е. Конец системы обязательного образования? //Вопросы образования. - 2017. - № 1. - С. 230-260.
2. Минбулатов, В.М. Физическая культура в школе. Очерки дидактических основ. - Махачкала: Дагучпедгиз, 1993. - 159 с.
3. Сидоров, Л.К. Двигательная потребность и двигательная активность: Этапы и пути развития: монография. - Красноярск:КГПУ им. В.П. Астафьева, 2007. - 334 с.
4. Xudoyberdiyev B.R. Qisqa masofalarga yuguruvchilarni tayyorlashda foydalaniladigan harakatli o'yinlar. Boshlang'ich ta'lim sifatini oshirish: mazmun, metodologiya, baholash va ta'lim muhiti. Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallar to'plami. – Qarshi, 2021.- B.76-78.

РЕЗЮМЕ

Ushbu maqolada jismoniy-aqliy rivojlanish asosida bilish faolligining shakllanishining mazmun mohiyatiga qisqacha to'xtalib o'tilgan va uning o'ziga xos jihatlari yoritib berilgan.

РЕЗЮМЕ

В данной статье кратко затронута сущность формирования познавательной деятельности на основе физического и умственного развития и освещены ее специфические аспекты.

SUMMARY

This article briefly touched on the essence of the formation of cognitive activity based on physical and mental development and highlighted its specific aspects.